

## **YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY, HUQUQIY ASOSLARI VA MUAMMOLARI**

**Sabinabonu Jahongirovna Azimova**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti  
buxoro filiali Yer tuzish va Yerdan foydalanish kafedrası o'qituvchisi

**Manzura Axatovna Asatova**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti  
buxoro filiali Yer tuzish va Yerdan foydalanish kafedrası o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada yer resurslaridan foydalanuvchilar va yer egaliklarining yer islohoti davrida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlardir.

**Kalit so'zlar:** yer resurslaridan foydalanuvchilar, yer egaliklari, yer munosabatlari.

## **ECONOMIC, LEGAL BASIS AND PROBLEMS OF THE USE OF LAND RESOURCES**

### **ABSTRACT**

The article describes the relationship between land users and landowners in the process of improving the organizational and economic mechanisms of land reform.

**Keywords:** land users, land tenure, land relations.

### **KIRISH**

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab barcha sohalarda keng ko'lamli islohotlar olib borilayotganini bugun barchamiz g'urur va iftixor bilan tilga olmoqdamiz. Insoniyat tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday mukammal tizim ham zamon va makon ta'sirida, taraqqiyot tendensiyasiga mos ravishda rivojlanmog'i uchun islohotga, yangilanishga ehtiyoj sezadi. Bu islohotlar va yangilanishlarga bo'lgan ehtiyoj yer resurslarini boshqarish tizimini ham chetlab o'tmadi. Bu sohada ham yer

resurslaridan aniq maqsadlarda, samarali foydalanishni tashkil etish va boshqarishga qaratilgan bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning nazariy asoslari

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yer munosabatlarini boshqarish–barcha ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi. Munosabatlar ijtimoiylikdan iqtisodiy, huquqiy, ekologik va boshqarishning boshqa turlarini ham o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston jamoatchiligi va iqtisodiyot sohasining olimlari o‘rtasida yer munosabatlarini rivojlanish mexanizmlari to‘g‘risidagi bahslar kengaymoqda. Fikrimizcha, yer munosabatlarini boshqarish – bu davlatning va jamiyatning yer resurslarini boshqarishga muntazam va muayyan maqsadga qaratilgan ta‘sir ko‘rsatishdir. Bunday ta‘sir ko‘rsatish mamlakatning yer resurslaridan samarali foydalanishni ta‘minlash maqsadida obyektiv qonunlarni bilishga va ularni hayotga tatbiq etishga undaydi. Yer resurslarini boshqarish tarkibiga quyidagilarni kiritishi kerak: yerdan foydalanish ustidan nazorat qilish, tashkillashtirish, tartibga solish, rejalashtirish. Yer resurslarini boshqarish tizimining asosini obyekt, subyekt, predmet, maqsad, vazifalar va boshqarish funksiyasi tashkil etadi. Boshqarishning obyekt va predmetini tarixiy-ijtimoiy jarayonlar natijasi deb bilish zarur. Boshqarishning predmeti va obyekt turlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Masalan, ko‘p qavatli binolarning yer uchastkalarini boshqarish, bir qavatli binolar joylashgan uchastkalarini boshqarishdan talaygina farqlanadi. Yer resurslarini boshqarishning maqsadi, mohiyati va vazifasini mustaqil O‘zbekiston jamiyatining bugungi kundagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy harakati belgilab beradi. Boshqarish obyekt O‘zbekiston Respublikasining yer fondidir, uning subyektlari ma‘muriy-hududiy birliklar, ma‘muriy tumanlar, shaharlar, yerga egalik qilishning ayrim yer mulklari, huquqiy ma-qomdan foydalanish tavsifi bo‘yicha yerdan foydalanishning farqla-nadigan, shuningdek yerdan foydalanishga kirmaydigan (umumiy foydalanish yerlari) yer uchastkalaridir. Yer resurslarini boshqarish bo‘yicha ijro – farmoyish berish organlari faoliyatining mazmuni yer resurslaridan foydalanishni reja-lashtirish va bashoratlashtirishdan iborat. Yerlarni qayta taqsimlash va yerlardan foydalanish, yerga egalik qilishning tartibi va me‘yorini belgilash, yerlarni muhofaza qilish va yerdan foydalanganligi uchun faoliyatini nazorat qilishni tekshirish va tezkor – farmoyish berishdir.

Yer resurslarini boshqarish tizimida oʻtadigan jarayonlar asosini uzluksiz axborot almashinuvi tashkil etadi. Bu almashinuvni taʼminlaydigan vosita yer kadastrini hamda yer monitoringi hisoblanadi.

*Boshqarish jarayonida axborotlar oʻzlarining vazifasi boʻyicha quyidagilarga taqsimlanadi:*

- xabardor qilishga (qabul qilinadigan qarorlarni asoslash uchun
- foydalaniladi);
- boshqarish jarayoni shakllanadi va subyektga ijro etish va
- foydalanish uchun yetkaziladi.

Axborotlarni toʻplash, ishlov berish va ularning tahlili yaxlit boshqarish tizimining mohiyatini belgilaydi. Shuning uchun axborotlarni boshqarish komponentlarini aniqlashda ularning maʼmuriy hududiy darajalarida oʻzaro aloqadorligi ham muhimdir

Axborotlarning manbai yer kadastrini xizmati va boshqa idoralar, shuningdek hokimiyat ijro organlarining materiallari boʻlishi mumkin: kartografik, material, hisobotlar, kitoblar va qaydnomalar, kataloglar, referatlar, ekspertlar maʼlumotlari, qomuslar, boshqa tekshiruv hamda tahlil materiallari. Boshqarish tizimining ishlab chiqarish va yaratish jarayoniga uning obyekti va predmetidan tashqari boshqaruvning maqsadi va vazifalari ham taʼsir koʻrsatadi. Shu bilan birga obyekt va predmet koʻp yillik oʻtmish davrida yaratiladi. Maqsad va vazifalar esa jamiyat tomonidan qisqa muddatda shakllantiriladi. Birinchi va ikkinchi guruhlar oʻrtasida yetarlicha oʻzaro aloqa mavjud. Chunonchi, maqsad va vazifa boshqarishning predmeti va obyekti holatini hisobga olish bilan shakllanadi. Shakllanib boʻlingan maqsad va vazifa esa ularni realizatsiya qilish paytida boshqarishning predmeti va obyektini shakllantiradi.

Yer resurslarini boshqarishning maqsadi – jamiyatning mujassam-lashgan ehtiyojini ifodalashdir. Maqsad yer resurslari xususiyatlaridan foydalanish asosida qondirilish holatini kelajagi va ulardan foydalanish jarayonini aks ettiradi. Yerdan foydalanishning oʻzi bu yer resurslariga ayrim subyektlar yoki jamiyatning bevosita taʼsir koʻrsa-tishidir. Shu bilan birga har qanday taʼsir koʻrsatuvchi yerning aniq xususiyatini isteʼmol qilish bilan pisanda qilingan maʼlum maqsadga ega. Jamiyat alohida subyektlar maqsadini ularning ommaviyligi va xilma-xilligi sababli toʻla nazorat qilishga qodir emas. Shuning uchun bu jarayonlarni boshqarishda yerdan foydalanishning umumiy qoida va chegaralarni oʻrnatilishini talab qiladi. Bunday

chegaralar foydalanish chegaralash va foydalanish tizimini o'rnatish asosida yaratiladi. Bunday holat yerdan foydalanishning har qanday holati uchun xosdir va yer resurslarini barcha xilma-xil tizimlari uchun umumiy bo'lib hisoblanadi. Yer resurslarini boshqarishning maqsadi, umumiy ko'rinishda yerdan foydalanish bilan bog'langan jamiyat ehtiyojini yanada yuksak darajada qondirishga imkon beradigan yerdan foydalanishning va yer munosabatlari tizimining shakllanishini ta'minlash va yaratishdan iboratdir. Vaqtning aniq davrida maqsad alohida e'tiborini ifodalashga ega bo'lish mumkin: ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik yoki ularning o'zaro birligida. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar qishloqlar va shaharlar hududida ijtimoiy ustunlikka ega edi. O'sha paytda aholining barcha ehtiyojlarini maksimal qondirilishi mumkinligiga urg'u berilgan. Hozirgi paytda yer bozori rivojlangan sharoitda iqtisodiy o'zgarishi hisobga olishning qayta mo'ljallanishi ro'y berdi, ya'ni maksimal iqtisodiy samaradorlikka erishishi mo'ljallanmoqda.

**Muammoni qo'yilishi.** Tabiiy muhitning ahamiyati tarkibiy qismi – yer resurslaridir. U hududi, iqlimi, relyefi, tuproqlarining sifati, gidrologik sharoiti, o'simliklari va boshqa belgilari bilan tavsiflanadi, xalq xo'jaligi obyektlarini va aholini joylashtirish uchun kenglik asos, qishloq va o'rmon xo'jaliklarida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yer resurslaridan foydalanish suv manbaalariga, qazilma boyliklar zaxirasiga, havo basseyniga, o'simlik va hayvonot dunyosiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Keyingi yillarda mamlakatimizda yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarini maqbullashtirish va ularni ajratishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash, yer-suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy bozor mexanizmlari, innovatsion va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, past hosilli paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobiga yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo'yicha tizimli choralar amalga oshirilmoqda .

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yer resurslaridan foydalanishni boshqarish orqali yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tanlangan tadqiqot ob'ekti doirasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir va ular quyidagilar:

➤ Tadqiqot ishining nazariy asoslarini ochib berish;

- Ob'ekt to'g'risidagi tadqiqot ishiga tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish. Bu doiradagi ilmiy izlanishlarni o'rganib chiqish.
- Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish.
- O'rganib chiqilgan masalalar yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

## XULOSA

Tumanda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun asosan sho'rlangan yerlarda meliorativ ishlarni keng ko'lamda olib borish, notekis ekin maydonlarida kapital tekislash ishlarini o'tkazish va suv bilan kam ta'minlangan maydonlarga yangi sug'orish tarmoqlarini o'tkazish zarur.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. Toshkent, O'zbekiston, 2014 yil.
2. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlari to'plami. I va II qismlar. Toshkent, Sharq, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Davlat yer kadastrini to'g'risida". Toshkent, 1998 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.04.2019 yildagi 357-sonli «Qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan yetishtirilgan boshqoqli don ekinlari hosildorligi va yalpi hosilini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 fevraldagi 5209-son «O'zbekiston Respublikasida kosmik tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoyishi.